

“FLESHMOB” TO‘G‘RISIDA TUSHUNCHA

Zuhriddinov Farrux Faxriddin o‘gli

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs talabasi

zuxriddinofarrux001@mail.com

Saitov Mirhayot Muzaffar o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 1-kurs talabasi

Toshtemirov Rustam Abdurashidovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qtuvchisi

rustambek22091985@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Fleshmob” to‘g‘risida tushuncha, uning nohush oqibatlari to‘g‘risida malumot beriladi. Hozirgi kunda internet olamida shiddat bilan rivojlanayotgan bu kabi holatlar salbiy oqibatlarga olib kelayotgani takidlanadi. “Fleshmob” natijasida ko‘plab insonlarning hayoti xavf ostida qolishi, jamiyatlar barqarorligi izdan chiqayotgani bayon etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Fleshmob, selfi, axmoqlik, mafkuraviy immunitet, manaviy tahdid, happening.*

КОНЦЕПЦИЯ “ФЛЕШМОБ”

***Аннотация.** Понятие о “флешмобе в данной статье, сообщается о его неприятных последствиях. В настоящее время подобные ситуации, которые бурно развиваются в мире интернета, негативны что приводит к*

последствиям. В результате "флешмоба" на карту поставлены жизни многих людей, стабильность общества указывает, что он выходит из-под контроля.

Ключевые слова: Флешмоб, селфи, идиотизм, идеологический иммунитет, моральная угроза, happening.

CONCEPT OF "FLASHMOB"

Annotation. The concept of "flashmob" in this article, information is provided about its consequences of chickpeas. Currently such situations, which are rapidly developing in the world of the internet, are negative it is assumed that the consequences will be. "Flashmob" resulted in the danger of the lives of many people, the bargaining of societies it is stated that he is leaving the trail.

Key words: Flashmob, selfie, stupidity, ideological immunity, happening.

Manaviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'noda erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion hurujlarni nazarda tutish lozim[1].

"Fleshmob" inglizcha so'z bo'lib, *flash*-uchqun va *mob*-olomon degan manolarni anglatadi. Nemis tilida "mob" so'zi yaramaslar degan ma'noda ham ishlatiladi. Demak, "fleshmob" so'zi "yaramaslar to'dasi" degan ma'noni ham anglatadi[2].

Fleshmob ma'no jihatdan ilgari mavjud bo'lgan "happening" atamasiga yaqin keladi. Happening –(ing.happening-sodir bo'lmoq) teatr namoyishida oldindan dasturda bo'lmagan g'oyaning avj olishi yoki qandaydir hodisaning tomoshabinlar hamkorligida birdaniga tez rivojlanishi tushuniladi[3].

Bugungi kunda fleshmob atamasini reklama, OAV sahifalarida turli dasturlarda har xil soha mutahasislari ishlatyapti. Ortida uchinchi tomonning g'arazli g'oyalari berkingani uchun ushbu atama hamon to'lig'icha, batafsil yoritib berilgani yo'q.

“FLESHMOB”- bu bir to‘da odamlarning internet orqali maxfiy kelishgan holda to‘satdan bir yerda paydo bo‘lishi va oldindan o‘ylangan tartibsizlikni sodir etish bilanoq, tezda yana g‘oyib bo‘lishidir.

Fleshmobchilar, avvalo, xalq ongiga o‘z jirkanch g‘oyalarini singdirish, yoshlarni unga moslashtirib, norozilik kayfiyatida ushlab turish oqibatida qora maqsadlariga yetishga intilishadi. Fleshmob tashkilotchilari, asosan, yoshlarni, yani hali oqni qoradan ajrata olmaydigan bolalarni ofat domiga tortishga urinishadi. Fleshmobchilar butun dunyo bo‘ylab olib borayotgan harakatlarning bir qancha turlari mavjud. Ular hech kimga serdirmagan holda internet orqali olomon ichiga yo‘l topib, kirib boradi. Hozirgi kunda yoshlar ahloqini, dunyoqarashini buzadigan juda ko‘p kliplar, asosan, fleshmobning vatani bo‘lgan garb davlatlaridan tarqalishi hech kimga sir emas.

Fleshmob o‘tkazishning eng asosiy sharti uning kutilmaganda, qo‘qqisdan sodir etishdir. Shuningdek unda tashkiliy raxbar bo‘lmaydi.

Hozir fleshmob O‘zbekiston yoshlari ma’naviyatiga ham sezdirilmagan holda tahdid solmoqda. Fleshmob yoshlar tarbiyasiga quyidagi vositalar orqali salbiy ta’sir o‘tkazayapti:

- garb filmlari, musiqalari va kliplari;
- internetdagi ijtimoiy tarmoqlar;
- uyali telefonlar;
- hayosizlikni targ‘ib etuvchi axborot vositalari;
- virtual o‘yinlar.

Fleshmob qatnashchilari insonlarga asosan, ma’naviy tomondan taxdid solmoqdalar.

Zamonaviy dunyoda ilm-fanning turli sohalarida ishlatiladigan keng ko‘lamli keng ko‘lamli qurilmalar mavjud, ular nafaqat fundamental, balki ilmiy fanlar bilan ham bog‘liq. Ko‘plab haqiqiy bo‘lmagan muhitlar ingl. Hissiyotlami, ya’ni kompyuter ekranida yoki maxsus stereoskopik displeyda ko‘rsatilishi mumkin boigan tasvirlami ifodalaydi[4].

“Selfi” inglizcha soʻz boʻlib, “oʻzini oʻzi suratga olish” degan maʼnoni bildiradi. Oksfort lugʻatini tuzuvchilar ushbu soʻzni 2013-yilda “Yil soʻzi ” deb eʼlon qildilar. “Selfi” soʻzi dastlab ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari tomonidan qoʻllanila boshlangan.

Oksfort lugʻatida “selfi” soʻzi: “Kishining smartfon yoki veb-kamera yordamida olgan va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirgan surati”, deb taʼriflangan. Ushbu soʻz ilk bor 2002 yilning sentabr oyida Avstraliyaning internet forumlarida qoʻllangan.

Hozirgi paytda ommalashib borayotgan selfi inson hayoti uchun juda ham xatarli ekani aniq boʻldi. Chunki insonlar mashhur boʻlish istagida oʻz jonlarini ham ayamayptilar. Bunga quyidagi misollarni keltirib oʻtish mumkin:

“Polshalik sayyoh Silviya Rayhel Ispaniyaning Seviliya shahridagi koʻprik ustida selfiga tushish chogʻida pastga qulab, halok boʻlgan”.

“Portugaliyada er-hotin sayyohlar juftligi selfi tushirmoqchi boʻlib, 80 metrli balandlikdan tushib ketib, halok boʻldi.Fojiyaga ularning besh va olti yoshli farzandlari guvoh boʻldi”.

Yana bir misol: 44 yoshli kanadalik shaxs qaynab turgan lava bilan toʻla vulqon ogʻziga tushib, u yerda oxirgi selfini oldi.

Bu kabi holatlar ochiqdan-ochiq oʻz hayotini xatarga qoʻyishdir. Islomda insonlar oʻzlarini oʻz qoʻllari bilan halokatga tashlamasliklari qayta-qayta uqtiriladi. Insonlar esa koʻpincha oʻz ahmoqliklari qurboniga aylanadilar.

Axmoqlik-tartibsizlik tufayli kishining tabiatiga oʻrnab olgan illatlardan biridir. U mustahkamlanib olgach, xech bir hiyla yoki davo bilan yoʻqotib boʻlmaydi. (“Favoqih al-julaso”)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”.-T.:”O‘zbekiston”, 2008.
2. Aydarbek Tulepov. “Internetdagi tahdidlardan himoya”-T.:“Movarounnahr”, 2015.
3. Toshtemirov R.A., Virtual haqiqat va uning insonga ta’siri, Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, Xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 2-qism, 2023, 306-309 B., <http://interscience.uz>.
4. Toshtemirov R. A., (2023). Media education is an important factor in protecting young people from negative information. SCHOLAR, Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, ISSUE 29, 2023, Pp 187–195.